

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQIQAT LEKSEMASINING SEMANTIK VA ETIMOLOGIK TAHLILI

Mardiyev To'lg'in Kuliboyevich,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

СЕМАНТИКО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛОКЕМЫ ПРАВДА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Mardiyev Tulkin Kuliboyevich

*доцент Самаркандского института экономики и
сервиса*

SEMANTIC AND ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE LOKEME OF TRUTH IN ENGLISH AND UZBEK

Mardiyev Tolkin Kuliboyevich

*Associate Professor of Samarkand economics and service
institute*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida haqiqat leksemasining semantik va etimologik tahlili ikki tilda mavjud bo'lgan lug'atlar, maqollar va boshqa adabiyotlardagi asosli fikrlar bilan izohlandi. Shuningdek, maqolada haqiqat tushunchasining ikki qardosh bo'lmagan til milliy madaniyatidagi o'xshash va umumiy tomonlarini ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan maqollarda berilgan fikrlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, haqiqat, semantik, etimologik, g'oya, umumiylik, asl, hukmron, morfologik, metoforik.

Аннотация: В данной статье семантический и этимологический анализ лексемы «истина» поясняется обоснованными мнениями словарей в английском и узбекском языках, пословиц и другой литературы, доступной на двух языках. Также в статье мы сравним схожие и общие аспекты понятия истины в национальной культуре двух неродственных языков с мнениями, выраженными в пословицах на английском и узбекском языках.

Ключевые слова: язык, культура, истина, смысловая, этимологическая, идея, общее, исходное, доминантное, морфологическое, метафорическое.

Annotation: In this article the semantic and etymological analysis of the lexeme "truth" is explained by informed opinions of dictionaries in English and Uzbek languages, proverbs and other literature available in two languages. Also in the article we will compare similar and general aspects of the concept of truth in the national culture of two unrelated languages with the opinions expressed in proverbs in English and Uzbek.

Key words: language, culture, truth, semantic, etymological, idea, general, original, dominant, morphological, metaphorical.



e-mail:
tulkinmardiyev1@gmail.
com

<https://orcid.org/0004-0044-0230-0033>

Kirish. Ma'lumki, etimologiya tilshunoslikning bo'limlaridan biri hisoblanadi. Etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiy manbalarni hamda til lug'at tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki, qadimiy holatini

tiklashdan iborat. Etimologiyaning asosiy vazifasini albatta til, xalq va madaniyat belgilab beradi. Til ham etnos va madaniyat bilan bog'liq bo'lgan hamda ularni yuzaga chiqaruvchi, vujudga keltiruvchi vosita sanaladi. Bular ichida til hukmron

hisoblanadi. Bunda, tilning noyoblighi shundaki, u keltirilgan tushunchalar bilan uzviy bogʻlangan, uni operatsion tizim sifatida boshqa dasturlar uchun oʻziga xos qobiq deb qiyoslash mumkin.

Tildagi etnik xususiyatning yaqqol misoli ona tilini his qilishdir. Barcha xalqlarda til milliy his-tuygʻu va ong bilan uzviy bogʻlangan. Insonning oʻz ona tiliga yaqinlik tuygʻusi har bir tilda obrazli tafakkurning takrorlanmas assotsiatsiyalarining mavjudligi bilan tushuntiriladi. Ular har bir soʻzning oʻziga xos semantik toʻliqligiga-madaniy mazmunga ega boʻlib, til tizimida mustahkamlanadi va uning milliy oʻziga xosligini tashkil etadi [10, 89].

Zero, tilsiz etnos (xalq) ham, madaniyat ham boʻlmaydi. Chunki, insonning insoniyligi, madaniyligi til orqali aks etadi yoki yuzaga chiqadi. Har bir til leksikasida muayyan miqdordagi soʻzlar borki, ularning shakli bilan maʼnosi oʻrtasidagi bogʻliqlik shu til egalari uchun tushunarsiz boʻlib qolgan, chunki soʻzning tarixan oʻzgarib borishi uning dastlabki shakl va maʼnosini xiralashtirib qoʻyadi, bunday soʻz strukturasi tildagi mavjud yasaliş qoliplari orqali izohlab boʻlmaydi. Etimologik tahlilning maqsadi muayyan soʻzning qachon, qaysi tilda, qanday yasaliş qolipi boʻyicha, qaysi til materiali asosida qanday shakl va maʼnoda paydo boʻlganini aniqlashdir. Etimologik tahlilning asosiy metodi qiyosiy-tarixiy usul boʻlib, u fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, morfologik oʻzgarishlarga tayanib ish koʻradi. Bunday tadqiqot natijalari til tizimi va strukturasiidagi turli jarayonlarni hamda soʻzlarning etimologik maʼnolarini aniqlashda, etimologik lugʻatlar tuzishda ahamiyatlidir. Muayyan til uchun oʻzlashma hisoblangan soʻzlar etimologiyasini aniqlash unchalik qiyin emas. Masalan, hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanayotgan «daftar», «piyola», «qalam» kabi soʻzlarning yunon tiliga mansubligi, oʻsha tildagi (dastlabki) maʼnosini aniqlash uchun leksikografik izlanish - tegishlitillar (arab, fors, yunon) lugʻatlarini solishtirish kifoya qiladi. Biroq «juda qadimiy» maʼnosidagi «daqyonus (daqqiyunus)dan qolgan» iborasining etimologiyasini aniqlash uchun din tarixidan, Qurʼoni karimdagi «Kahf» surasidan, Rim imperiyasi tarixidan xabardor boʻlish kerak [9, 58].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Prof. Sh. Rahmatullayevning keyingi yillardagi tadqiqot va

lugʻatlari bu sohadagi dastlabki tajribalar hisoblanadi. Shuningdek, sohaga qiziquvchi va shu yoʻnalishda amalga oshirilgan qator tadqiqotlar, ilmiy ishlar va lugʻatlar sohiblari borki, ular tilshunoslikda etimologiya sohasining dargʻalari desak adashmaymiz. Jumladan, til va uning leksik qatlami va semantik jihatlarini muxtasar oʻrganib, oʻzlarining qator darslik va kitoblari chop etib, nafaqat oʻz ona tili qolaversa boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarning asl maʼnosini oʻrgangan olimlarimizning mehnati beqiyos. Oʻzbek tilshunosligida bu masala boʻyicha A.Mamatov, D.Ashurova, Sh.Safarov, O.Yusupov, A.Abdualazizov, U.Sanaqulovlarning ishlari ahamiyatlidir.

Tahlil va natijalar. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, tahlil qilinayotgan mavzu toʻgʻrisida qator izlanishlar va tahlillar amalga oshirilgan boʻlib, maqolani yozish jarayonida asosli adabiyotlardan kerakli maʼlumotlarni toʻplagan holda maʼlum bir izlanishlarni amalga oshirdik. Koʻrinib turibdiki, *haqiqat* leksemasining etimologik va izohli lugʻatlardagi maʼnosi quyidagicha berilgan. Bu soʻz arabcha soʻz baqlq(un) shakliga ega boʻlib oʻzbek tiliga ayn tovushini **a** tovushiga, chuziq **I** unlisini **I** unlisiga almashtirib, soʻz boshlanishiga **q** tovushini qoʻshib qabul qilingan boʻlib, *chin*, *asl*, *aynan* kabi maʼnolarni oʻzbek tilida anglatadi [6,57]. Zero, *haqiqat* soʻzining semantik tomonlari toʻgʻrisida yirik faylasuf va tilshunos olimlar tomonidan qator ajoyib fikrlar berilgan. Masalan, *Agar haqiqat bizga nima qilishimiz zarurligini bildirmasa, u holda nimani qilmasligimiz yoki nimadan oʻzimizni tiyishimiz lozimligini koʻrsatib beradi* (L.N. Tolstoy). *Haqiqat goho egiladi-yu, ammo hech vaqt sinmaydi, bamisoli suv betidagi moydek yolgʻonning yuziga qalqib chiqadi* (Servantes). *Agar siz haqiqatni yashirib, tuproqqa koʻmsangiz, u beshakoʻzi unib chiqadi va keyin shunday kuchga aylanadiki, bir kun borib, yerni yorib chiqqach, oʻz yoʻlida uchragan jami narsalarni supurib tashlaydi* (E.Zolya). *Asl haqiqat barcha jonzoʻtlar kabi barqaror va qaqqroq yerni yorib chiqqan bahorgi yashil kurtakga oʻxshab oʻziga yoʻl ochib boradi* (M.M.Prishvin). *Har qanday munofiqlik ham uzogga bormaydi* (J.Komenskiy). *Haqiqat shulasiga hech bir bulut bas kelolmaydi* (F.M.Dostoevskiy) [1,57-98]. Ushbu fikrlarda

haqiqat tushunchasining *suv, moy, tuproq, yer, jonzotlar va kurtak* kabi metaforik o'xshatish ma'nosida aks etish holatlari xalq og'zaki ijodida tez-tez kuzatiladi.

Yana boshqa bir qomusiy olimlar bor-ki ularning nazarida haqiqat tushunchasini ko'proq *quyoshga, tabiatiga va havo* kabi unsurlarga o'xshatish holatlari ham uchraydi. Masalan, *Haqiqat quyosh kabi tuman ostida qolish mumkin, ammo bu o'tkinchi holat* (K. Bouvie). *Haqiqatning bukilmaz bir tabiati shuki, u faqat bir narsani dunyoda erkin ko'z ochmaslik huquqini talab qiladi va istaydi. Quyoshni tasvirlab o'tirishga hojat yo'q bu siz ham uni zulmatdan ajrata oladilar* (T.Pen). *Haqiqat bu havodir, usiz nafas olish mumkin emas.* I.S.Turgenev [1,58-98]. Shuningdek, galdagi taniqli faylasuf-olimlarning ushbu mavzu bo'yicha qarashlari esa tubdan farq qilib, ularning nazarida haqiqat tushunchasi *e'tiqod, nasihat, barkamollik, halollik, insof, aql* kabi mental g'oyalarni bog'lab keladi. Masalan, *Haqiqat e'tiqod va umidlarimiz manbai* (Barbus). *Haqgo'ylik bilan yasha – eng yaxshi nasihat shu* (M.Servantes). *Odamning qanchalik haq go'yiligi tegishli barkamol nasihatligiga belgidir* (L.N.Tolstoy). *Shaxsiy manfaatlar va mayllarga berilmay haqiqatga bo'ysunish bor bo'lsa halollik, odoblilik mana shundadir* (N.P.Ogarev). *Haqiqat odamda insofdiyonatning g'olib kelishi degan gap* (M.M.Prishvin). *Haqiqatgo'y aql ko'rgan odamni beqiyos quvontiradi; hech bir narsa yolg'ondek aqlga nomonand vazid emas* (J. Lokk) kabi olimlarning fikrlari ham ahamiyatli.

Ingliz tilida mavjud bo'lgan yirik etimologik va izohli lug'atlarda ushbu leksemaning mazmuni quyidagicha ochilib berilgan. Jumladan, *true-haqiqat* tushunchasi ilk bor ingliz tiliga XIV- XV asrlarda qadimgi Saksonlar, Nemislar va Daniyaliklardan o'zlashma so'z yoki so'zlarga suffiks kabi qo'shimchalar qo'shilish orqali kirib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, *true* (adj.) Middle English *treu*, from Old English *triewe* (West Saxon), *treowe* (Mercian) "faithful, trustworthy, honest, steady in adhering to promises, friends, etc.," from Proto-Germanic **treuwaz* "having or characterized by good faith" (source also of Old Frisian *triuwi*, Dutch *getrouw*, Old High German *gatriuwu*, German *treu*, Old Norse *tryggr*, Danish *tryg*, Gothic *triggws* "faithful, trusty"), from

PIE **drew-o-*, a suffixed form of the root **deru-* "be firm, solid, steadfast. "The sense of "consistent with fact" is recorded from c. 1200; that of "real, genuine, not counterfeit" is from late 14c.; that of "conformable to a certain standard" (as *true north*) is from c. 1550. Of artifacts, "accurately fitted or shaped" it is recorded from late 15c. Of aim, etc. "straight to the target, accurate," by 1801, probably from the notion of "sure, unerring." *True-love* (n.) is Old English *treowlufu*. *True-born* (adj.) is attested from 1590s. *True-false* (adj.) as a type of test question is recorded from 1923. To *come true* (of dreams, etc.) is from 1819. *True* (v.) "make true in position, form, or adjustment," 1841, from *true* (adj.) in the sense "agreeing with a certain standard." Related: *Trued*; *truing*[4,214] kabi ma'nolarni anglatib kelishini ko'ramiz.

Ushbu leksemaning ikki qardosh bo'lmagan til milliy madaniyatidagi o'xshash va umumiy tomonlarini biz ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan maqollarda berilgan fikrlar bilan qiyosiy tahlil qilamiz. Masalan,

-*Truth fears no colours* (*Haqiqat ranglardan qo'rqmas.*)

Haqiqat quyoshdir, yashirib bo'lmas.

-*Truth never grows old.* (*Haqiqat sira eskirmas.*)

Haqiqat o'tda ham kuymas, suvda ham cho'kmas.

- *Truth, the whole truth, and nothing but the truth.* (*Haqiqat, butun haqiqat va haqiqatdan boshqa hech narsa*)

Haq egilsa ham, sinmaydi, haqqa zavol bo'lmaydi.

- *Fair play's a jewel.* (*Sof o'yin - boylik*)

To'g'rilik to'rga tortar, o'g'rilik – go'rga kabi ikki tilda berilgan maqollardagi asosiy g'oya umumiylikka xos bo'lib, asl haqiqatni biz hech qachon yashira olmasligimiz, uning egilmasligi va kechroq bo'lsa-da, o'zligini namoyon qilishi to'g'risidagi fikrlar yuqoridagicha xalq maqollarda keng bayon etilgan. Biz mavzuga doir qator maqolarni kuzatganimizda qardosh bo'lmaganingliz va o'zbek tillari xalq og'zaki ijodida yana bir qator maqollarda mazmun jihatdan universallik holatlari kuzatiladi. Masalan,

- *One lie ruins a thousand truths.*

- *Biryolg'onminghaqiqatnibuzar.*

- *True blue will never stain.-*

- *Aslodamhecho 'lmas.*
- *True word is spoken in jest, Many a.-*
- *Bilsa – hazil, bilmasa – chin.-*
- *Trust not a new friend nor an old enemy.*
- *Harkimnido 'stdema,tandagipo 'stimdema.*
- *Truth is stranger than fiction.*
- *To 'g'ri tilim tiyolmadim,uqqanim bilan turolmadim.*
- *Truth lies at the bottom of a well.(Haqiqat quduq tubida yotar.)*
- *Haqiqat-osmonda,narvoni-hamyonda.*
- *Truth is the daughter of God.(Haqiqat – Xudoning qizi.)*
- *Haqiqat oltindan qimmat [2, 350-354].*

Ushbu berilgan maqollarda esa asosiy g'oya haqiqatga yolg'onning salbiy ta'siri, haqiqatga erishish oson emasligi, kerak bo'lsa uning oltinga tengligi kabi o'xshatish g'oyalari har ikki til vakillari og'zaki ijodida keng e'tirof etilgan holatlarni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar:

- Ingliz va o'zbek tillarida haqiqat leksemasining etimologik tomonlarini tahlil qilganimizda ingliz tilida *true-haqiqat* tushunchasining asl qilib chiqish jihatlari o'zbek tiliga nisbatan kengroq bo'lib, ushbu so'zning ingliz tiliga kirib kelishi qator g'arb mamlakatlari tili bilan uzviylik maqolani yozishda namoyon bo'ldi.

- Har ikkala tilda asl haqiqatni biz hech qachon yashira olmasligimiz, uning egilmasligi va kechroq bo'lsada o'zligini namoyon bo'lishini ifodalovchi maqollar mavjud bo'lib, ular ko'p holatlarda semantik jihatdan ikki qardosh bo'lmagan tillarda aynan bir xil ma'noni anglatadi.

- Qiyoslanayotgan har ikki tilning lingvomadaniy jihatdan sezilarli darajada farqli tomonlarini uchratsak-da, lekin umumiylikka xos bo'lgan jihatlarni ham maqolada ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Абдураззоқова Ш. Тафаккур гулшани. –Т.: Гафур Гулом, 1989. -462 б.
2. Караматова К., Караматов Х.С. Proverbs, Maqollar, Posloviцы. – Т.: Mexnat, 2000.- 398 б.
3. КСКТ – Краткий словарь когнитивных терминов. Кубрякова Е.С., Демянков В.З., Лузина Л.Г. – М.: Изд-во. МГУ, 1996.- 245 с.
4. М.М.Маковский. Историко-etimологический словарь современного английского языка. – М.: Изд-во. Диалог, 2000. - 645 с.
5. Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Т.: Фан, 1961.- 162 б.
6. Рахматов Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т.: Университет, 2003. - 600 б.
7. Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: Шарқ, 2005.- 512 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: ЎЗСЕ, 1981. - 632 б.
9. Гофуров З. Фалсафа луғати. – Т.: Ўзбекистон, 1976. - 640 б.
10. Apperson G.L. The Wordsworth Dicnionary of Proverbs. Wordsworth Reference. 1993.- 644 p .
11. www.special dictionary.com/proverbs.

